



TOPISHMOQLAR VA ULARNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Qalandarov Shuhratjon

Qo'qon DPI o'qituvchisi (PhD)

Sopoxonova Gulnoza Sobirjon qizi

Qo'qon DPI talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada xalq og'zaki ijodi, uning turlari, topishmoqlar va unga xos asosiy xususiyatlari ko'rsatilgan.

Kalit so'zlar: xalq og'zaki ijodi, topishmoqlar; she'riyat, nasr, nazm, tazod, lug'z, chiston, muammo.

Topishmoqlar xalqning turmush tarzi va qadimiy e'tiqodlari ifodasi sifatida yuzaga kelgan. Ular shartli nutq natijasida qadimiy ajdodlarimizning ibtidoiy animistik va totemistik qarashlari shakllana boshlagan davrlarda—«insoniy shuur endigina uchqunlana boshlagan zamonlarda» (F.I.Buslaev) paydo bo'la boshlagan.

Topishmoqlar hajmi va shakliga ko'ra maqollarga o'xshaydi. Ba'zan mazmuniga ko'ra ham yaqinlik seziladi. Ammo yaratilish maqsadi boshqa hisoblanadi. Janrning nomlanishiga e'tibor bering. "Top" so'zining talaffuz etilishidanoq o'yla, axtar, solishtir, izla ma'nolari yetakchilik qiladi. Unga "ish" qo'shimchasi qo'shilganda, vazifa aniqlashadi: "-moq" harakat nomi qo'shimchasidan keyin "qo'lingdan kelsa", "eplasang", "uddalay olsang" tushunchalari ifodalanadi. Topishmoqlarning quyidagi janr xususiyatlari bor:

1. Hajm jihatdan qisqa va ixcham.
2. Shaklan she'riy, nasriy ko'rinishga ega.
3. Yaratilish maqsadida matnda yashiringan narsani topish vazifasi qo'yiladi.
4. Mazmunida hayvonot, o'simlik, koinot, maishiy hayotdagi narsalarning xususiyatlari yashirin tarzda ifodalanadi, uni topishga da'vat etiladi.
5. Topilishi lozim bo'lgan narsa, ko'pincha, bitta, ba'zan ikki va undan ortiq miqdorga ega bo'ladi.
6. Topishmoqlarda qo'llangan asosiy badiiy san'at istiora (metafora) hisoblanadi.

Topishmoqlarda topilishi lozim bo'lgan narsaning shakli, hajmi, rangi, vazifasi va shu kabi xususiyatlari haqida ma'lumot beriladi, ammo bu belgilar istiora san'atidan foydalanilgan holda boshqa narsa bilan bog'lanadi. Topishmoqlardagi savollar tizimi xususiyatlarni sanash tarzda amalga oshirilar ekan, hayratomuz qarama-qarshi mulohazalarga duch kelamiz. Masalan: "Qo'lsiz, oyoqsiz eshik ochar", "U yoqqa o'tdim – bildingmi, Bu yoqqa o'tdim – bildingmi, Oq quvrayning boshini, chertib o'tdim – bildingmi?" topishmoqlarida hayron qolishga majbur qiladigan muammolar juda ko'pga o'xshaydi. Topishmoqlarda bir narsaning bir emas, bir nechta belgilari, ikkinchi narsaga taqqoslanishi ham



mumkin. Masalan: “Yer ostida oltin qoziq” topishmog‘ida sabzining shaklan qoziqqa o‘xhashi, uning rangi oltinni eslatishi va yer ostida o‘sishi uyg‘un tarzda qayd etilgan. Bunday topishmoqlarni toppish nisbatan osonroq amalgalashadi.

Topishmoqlar yozma badiiy adabiyotga ham samarali ta’sir ko’rsatib, mumtoz she’riyatda lug‘z, chiston, muammo, ta’rix va muvashshah singari janrlarning yuzaga kelishiga ta’sir ko’rsatgan bo’lsa, XX asrda o’zbek bolalar she’riyatida adabiy topishmoqlar yozishning an’anaviy tus olishini ta’minladi. Bu sohada Jahon otin Uvaysiy, Gafur Gulom singari zabardast shoirlar boshlagan an’anani Shukur Sa’dulla, Ilyos Muslim, Adham Rahmat, Po’lat Mo’men, Safar Barnoev, Tursunboy Adashboev, Rauf Tolib va S.G`afurov singari bolalar adabiyotining turli avlodiga mansub ijodkorlar davom ettirmoqdalar. Ayniqsa, ulkan bolalar shoiri Quddus Muhammadiyning she’riy adabiy topishmoq janridagi ijodiy izlanishlari g’oyat samaradorligi bilan e’tiborga loyiq. Shoир «Toping-chi?», «Viz-viz», «O’ylab top», «Buni toping bolalar, aytib bermang onalar» singari she’riy adabiy topishmoqlarida xalq topishmoqlariga xos an’anaviy unsurlarni istifoda etish bilan cheklangan bo’lsa, «Militcioner amakim» asarida xalq posbonlariga xos xususiyatlarni jumboq holida ta’riflash asosida kasbni sir tutadi va sharaflovchi ma’no beradi. Natijada she’rning har bandi-bir jumboq tusini oladi. Olti band-olti jumboq shaklida jamlanib, yagona umumlashma poetik g’oyani aks ettiradi. Har bir bandda el soqchilarining ma’lum bir fazilati ta’riflanib, shu ta’riflarning kimga taalluqiligi sir tutiladi. Bunday jumboqning javobi har bir bandagi so’nggi misrada ochiladi: Qomatiga kelishgan forma, pagoni, Yonboshida charm qinda nagani, Yigitlar arsloni, man-man degani, Bolalarim bilasizmi? Ayting kim? –Kamar taqqan militcioner amakim! Shu zaylda u topishmoq janri kompozitsion tuzilishidan ijodiy foydalananib, she’riy adabiy topishmoqning yangi ichki namunalarini yaratishga muvaffaq bo’ldi. Binobarin, xalq topishmoqlari qatorida bu xildagi adabiy topishmoqlardan ham yosh avlodga ta’lim va tarbiya berishda, didaktik va axloqiy maqsadlarda keng va samarali foydalanimoqda. Topishmoq endilikda tom ma’noda bolalar ma’naviy mulkiga aylandi va ularni hozirjavoblikka, topqirlilikka, narsa va hodisalar mohiyatini teran anglashga, sezgirlik va sinchkovlik bilan kuzatishga o’rgatishda xizmat qilmoqda.

Topishmoqlarda xalq turmushining barcha qirralari ifodalangan: ularda ijtimoiy davr va vaqt tushunchasi mavjud. Shu xususiyatiga ko’ra ularning qachon yaratilganini belgilash va o’sha davr voqeligiga baho berish mumkin: «Bit»ni yashirgan «Abdullaxon-beustuxon» topishmog‘ida xalqqa og‘ir jafolar ko’rgazgan XVI asrdagi Buxoro amiri zolim Abdullaxon I obrazi yaratilgan.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Egamqulovna, A. M., Gafforova, Z., & Sobirova, G. (2024). EXPRESSION OF PHONETIC MEANS IN ARTISTIC TEXT. *FORMATION OF PSYCHOLOGY AND PEDAGOGY AS INTERDISCIPLINARY SCIENCES*, 2(25), 149-152.
2. Mahfuza, A. (2024). BADIY MATN VA LINGVOPOETIKA. *FORMATION OF PSYCHOLOGY AND PEDAGOGY AS INTERDISCIPLINARY SCIENCES*, 2(25), 145-148.
3. Egamqulovna, A. M. (2023). LINGVOPOETICS IS A BRANCH OF LINGUISTICS THAT STUDIES THE LANGUAGE OF ARTISTIC WORKS. *Gospodarka i Innowacje.*, 42, 23-26.
4. Mahfuza, A. (2023). FEATURES OF LINGUOPOETIC ANALYSIS OF LITERARY TEXT. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 11(2), 577-579.
5. Yigitaliyeva, S., & Yo'doshboyeva, O. (2023). OLIY TALIMDA ONA TILI FANINI O 'QITISHNING NAZARIY MASALALARI. *Общественные науки в современном мире: теоретические и практические исследования*, 2(8), 41-44.
6. Yigitaliyeva, S. (2023). Yaxshilik konseptining bilvosita ifodalanishi. *Mug'allim*.